QADIMGI DUNYO SIYOSATIDA KOHINLARING YASHIRIN MEXANIZMLARI VA SOXTA MO'JOZALARNING FOSH ETILUSHI

Noraliyeva Mehribon
Nizomiy Ganjaviy nomidagi
O'zbekiston milliy pedagogika
Universiteti Tarix fakulteti, tarix
yo'nalishi 202-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24446872

Annotatsiya: Mazkur tezisda qadimgi sivilizatsiyalarda diniy-siyosiy boshqaruv tizimining asosiy tayanchi bo'lgan kohinlik instituti, kohinlarning davlat hokimiyatidagi o'rni va aholini itoatda ushlab turish uchun qo'llagan texnik hamda kimyoviy hiylalari tahlil qilingan. Shuningdek, hukmdorlar va kohinlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli ittifoq, hokimiyat talashuvlari hamda ilm-fan taraqqiyoti va tarixiy o'zgarishlar natijasida soxta mo'jizalarning fosh etilishi aniq tarixiy faktlar asosida yoritilgan.
Kalit so'zlar: kohin, qadimgi dunyo, siyosiy hokimiyat, Delfi orakuli, Aleksandriyalik Geron, soxta mo'jizalar, tarixiy faktlar, ibodatxona mexanizmlari.

Annotation: This thesis analyzes the institution of priesthood as a primary pillar of religious and political governance in ancient civilizations, the role of priests in state power, and the technical and chemical tricks used to keep the population in obedience. Furthermore, the mutually beneficial alliance between rulers and priests, power struggles, and the exposure of fake miracles as a result of scientific progress and historical changes are highlighted based on specific historical facts.
Keywords: priest, ancient world, political power, Oracle of Delphi, Hero of Alexandria, fake miracles, historical facts, temple mechanisms.

Asosiy qism

Tarixiy va lug'aviy manbalarga ko'ra, "kohin" (arabcha) atamasi g'oyibdan xabar beruvchi, bashoratgo'y va xudolar bilan odamlar o'rtasida vositachilik qiluvchi shaxs ma'nosini anglatadi. Qadimgi Misr, Bobil, Yunoniston va Rim kabi yirik davlatlarda kohinlar nafaqat diniy marosimlar ijrochisi, balki ta'lim, astronomiya, tibbiyot va yozuv ustidan mutlaq monopoliyaga ega bo'lgan yagona ziyoli qatlam edi. Aholining 95 foizdan ortig'i savodsiz bo'lgan sharoitda kohinlar ilmiy bilimlardan xalqni qo'rquvda ushlab turish va siyosiy manipulyatsiya quroli sifatida foydalanganlar.

Kohinlar o'z nufuzini saqlab qolish uchun fizika, mexanika, akustika va kimyo yutuqlariga asoslangan turli hiylalar va soxta mo'jizalarni qo'llaganlar. Jumladan, ibodatxonalarda qurbongoh olovi yoqilganda issiq havo va suv bosimi yordamida og'ir darvozalarning o'z-o'zidan ochilib-yopilishi, ichi bo'sh ulkan haykallar ortidagi yerosti yo'laklari va devor ichidagi akustik quvurlar orqali "xudolar nomidan" gapirish keng tarqalgan. Shuningdek, haykallarning ko'z qismiga ulangan yashirin qo'rg'oshin naychalar orqali qon yoki sut oqizish, kimyoviy kukunlar yordamida suv rangini o'zgartirish hamda astronomik jadvallar asosida quyosh tutilishini oldindan bilib, buni "ilohiy g'azab" sifatida ko'rsatish kabi qitmirliklar amalga oshirilgan. Yunonistondagi Delfi orakulida esa yer yoriqlaridan chiqadigan etilen va metan gazlaridan mast bo'lgan kohina Pifiyaning alahlashlari ikki ma'noli siyosiy bashorat sifatida talqin qilingan. Lidiya podshohi Krezning Fors shohi Kir II ga qarshi

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

urushidan oldin berilgan "buyuk saltanatni vayron qilasan" qabilidagi bashorat kohinlarning har qanday natijada ham o'z obro'sini saqlab qolish usuliga yaqqol misoldir.

Ushbu soxta mo'jizalarning sirlari antik davr olimlarining izlanishlari va siyosiy o'zgarishlar natijasida fosh bo'lgan. Milodiy I asrda yashagan muhandis Aleksandriyalik Geron o'zining "Pnevmatika" asarida ibodatxona eshiklarini ochuvchi pnevmatik va gidravlik qurilmalarning aniq chizmalarini e'lon qilib, ularning oddiy mexanika ekanini isbotlagan. II asrda yozuvchi Lukian Samosatlik soxta payg'ambar Abonotixlik Aleksandrning nayranglarini, xususan, muhrlangan xatlarni issiq igna bilan eritib o'qish usulini fosh etgan. IV asrda Rim imperiyasida xristianlik davlat diniga aylanib, imperator Feodosiy I farmoni bilan butparastlik ibodatxonalari, jumladan, 391-yilda Aleksandriya Serapeumi yopilganida, askarlar haykallar ichidagi yashirin yo'laklar va suyuqlik naychalarini topib, kohinlarning firibgarliklarini ommaga oshkor qilishgan.

Zamonaviy arxeologlar esa Misrdagi Kom-Ombo va Edfu ibodatxonalari devorlaridan maxsus tovush uzatuvchi tosh kanallarni aniqlashgan. Qadimgi dunyoda hukmdorlar va kohinlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro manfaatli kelishuvga asoslangan. Hukmdorlar kohinlarga ulkan yer-mulklar, soliq imtiyozlari va oltin hadya qilgan, kohinlar esa buning evaziga podshoh hokimiyatini "ilohiy" deb e'lon qilib, xalq qo'zg'olonlarining oldini olgan. Masalan, miloddan avvalgi 332-yilda Siva vohasi kohinlari Aleksandr Makedonskiyni "Amon-Ra xudosining o'g'li" deb e'lon qilib, unga Sharqni zabt etish uchun siyosiy qonuniylik berishgan. Makedoniyalik Filipp II esa Delfi kohinlarini oltin bilan sotib olib, o'z foydasiga bashoratlar chiqartirgan. Biroq kohinlar haddan tashqari kuchayib ketgan davrlarda ochiq to'qnashuvlar yuz bergan. Miloddan avvalgi XIV asrda Misr fir'avni Exnaton Amon-Ra kohinlarining hokimiyatini sindirish uchun ularning ibodatxonalarini yopgan, ammo uning o'limidan so'ng kohinlar yosh voris Tutanxamonga bosim o'tkazib, eski tartibni tiklashgan va Exnaton nomini tarixdan o'chirishga urinishgan. Miloddan avvalgi 539-yilda esa Bobil podshohi Naboniddan norozi bo'lgan Marduk kohinlari dushman shoh Kir II bilan til biriktirib, Bobil darvozalarini jangsiz ochib berishgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qadimgi davr aholisi mutlaqo sodda bo'lmagan va ziyoli qatlam vakillari (masalan, Sitseron) kohinlarning firibgarliklarini yaxshi anglagan. Biroq bilim ustidagi monopoliya, xudoga shak keltirish aybi bilan o'lim jazosiga tortilish qo'rquvi hamda davlat apparatining kohinlarni himoya qilishi tufayli odamlar bu tizimga ochiq qarshi chiqa olmaganlar. Hukmdor va kohinning "tili bir" bo'lishi bir tomonga boylik va imtiyoz, ikkinchi tomonga esa xalqni itoatda saqlash va hokimiyatni qonuniylashtirish manfaatini bergan. Bugungi kunda ham din va siyosat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik o'z shaklini o'zgartirgan holda saqlanib qolgan: masalan, Rim papasi va kardinallar boshchiligidagi Vatikan diplomatiyasi xalqaro siyosiy jarayonlar va saylovlarga ma'naviy ta'sir o'tkazsa, zamonaviy davlat rahbarlari ham o'z siyosiy qarorlarini oqlash va dindor saylovchilar ovozini olish uchun yirik diniy arboblar hamda ruhoniylar qo'lloviga tayanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gerodot. Tarix (9 kitobdan iborat). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
2. Aleksandriyalik Geron. Pnevmatika (Pneumatica). – London: Taylor Walton and Maberly, 1851.
3. Lukian Samosatlik. Aleksandr yoki soxta payg'ambar. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1987.
4. Avdiyev V. I. Qadimgi Sharq tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1964.
5. Frezer J. J. Oltin shox (The Golden Bough). – Moskva: Politizdat, 1980.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.